



YOSHLARDA SALBIY O'ZGARISHLARNI KELITIRIB CHIQARUVCHI TASHQI TA'SIRLARNING IJTIMOIIY, PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK JIHATLARI

Bekmurodova Ma'suda Musurmonovna

Toshkent viloyati Piskent tumani 21-maktab psixologi

Annotatsiya: Maqolani mutolaa qilar ekansiz siz hozirgi kun yoshlarida kuzatilayotgan salbiy xolatlar, ularning oqibatlari xaqida malumotlarga ega bo'lasiz.

Kalit so'z: Texnologiya, jamiyat, akseliratsiya, yuksalish, jarayon.

Hurmatli yurtboshimiz “Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda” deb nomlangan kitoblarida, ta’kidlash kerakki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish – bu shunchaki xohish-istak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamlakatimizdagi mavjud siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning asriy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruratdir, deya takidlaganlar. Yurtimizda yaratilayotgan keng islohotlarni o‘quvchilar ongiga tub mohiyat ila yetkazib berishda biz pedagoglar va ota-onalar zimmasiga ulkan vazifani yuklamoqda. Yangi O‘zbekistonni birgalikda yarataylik, deya yurtboshimiz jon kuydirayotgan bir vaqtda, afsuski, jamiyatimizda mavjud bo‘lgan ayrim qusurlar davlatimizni rivoji uchun to‘sqinlik qilayotgani hech birimizga sir emas. Davlatimizni rivojlanishi uchun barcha birga harakat qilmog‘i darkor, bizning fikrimizcha. Yoshlarni o‘qib, ilm olishlari uchun keng imkoniyatlarni yaratilayotgani bizlarning qalbimizga quvonch baxsh etadi, ammo ushbu imkoniyatlarni suv istemol etish holatlari ham uchrab turadi albatta. Misol uchun, biz bilgan juda ko‘plab davlatlarda ta’lim dargohlari pullik xizmat ko‘rsatadi. Jannatmakon yurtimizda esa davlat ta’lim dargohlarini butunlay bepul tarzda faoliyat yuritishlari izga qo‘yilgan. Ushbu o‘quv yilida esa maktab



darsliklarini davlatimiz o‘z hisobidan qoplab bergani ham ta’limga e’tiborning yuksakligidan dalolat. Bizlarga davlatimiz shunchalar keng imkoniyatlarni yaratib berayotgan bir vaqtda bizlar ushbu imkoniyatlarga loyiq tarzda ish tutyapmizmi?! Afsuski, ha, deya javob berishga haqli emasdekmiz. Hozirgi davr o‘quvchilarining dunyoqarashi zamon bilan hamnafas tarzda o‘sib bormoqda. Ta’lim dargohlari, ya’ni maktablarda o‘quvchilarining hozirgi XXI asr –innovatsion texnologiyalar misli ko‘rilmagan darajada rivojlangan bir asrda ularning tarbiyasida birmuncha og‘ishlar sodir bo‘layotgani hech birimizga sir emas. O‘quvchilar tarbiyasidagi o‘zgarishlarga ko‘plab sabablarni misol qilib keltirishimiz mumkin. Xususan, o‘quvchi ongida salbiy o‘zgarishlarga sabab bo‘layotgan omillardan biri, bugungi kunning zamonaviy aqlli gadjetlari bo‘lib, dunyoqarashi endi shakllanish pallasiga kelgan bola ularga o‘ta berilib, ongida sodir bo‘layotgan keskin jarayonlarni hatto sezmay ham qolmoqda. Nafaqat internet xuruji, balki oddiy telefon orqali so‘zlashuvlar natijasida ham juda ko‘p muammolar kelib chiqmoqda. Shuningdek, o‘quvchilarning ijtimoiy-ma’naviy og‘ishlariga sabab bo‘layotgan omillardan yana biri ota-onalarning o‘zida yetarli ma’naviyatning yo‘qligidir. Otaonalar farzandiga faqat moddiy ta’minotni hatto ortig‘i bilan yetkazib berishmoqda, ammo ma’naviy “ta’minot”ga, o‘rnak bo‘lishga kelganda oqsab qolayotganlari achinarli holat. Ushbu vaziyatda bola yetarli ma’naviy ozuqani ololmagach tarbiyasida, ruhiyatida me’yor talablariga xos bo‘lmagan o‘zgarishlar o‘z aksini ko‘rsatadi, albatta.

Fikri ojizimizcha, mahalla oqsoqollari va maslahatchilari idoralarda emas, balki xalq bilan, ayniqsa, yoshlar bilan kengroq, ko‘proq ishlarni amalga oshirishni izga qo‘ysalar maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Bunday fikrlashimizga sabab, agarda oilaning ichki muhitiga kirib borilsa, asosan, tarbiyaviy og‘ishlarning sababi oiladagi psixologik muhit ekanligi oydinlashadi. Ushbu nome’yoriy psixologik muhitni yaxshilashga kirishish vakolati esa fikrimizcha mahalla oqsoqollarininggina vakolat doirasiga kiradi. Ya’ni, avvalo, ota-onalar ma’naviyatidagi bo‘shliqlarni to‘ldirish zarur. Muhtaram prezidentimiz yosh avlod tarbiyasiga jiddiy e’tibor qaratib “Erkin va farovon demokratik O‘zbekiston davlatini



birgalikda barpo etamiz” deya nomlangan kitoblarida, yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma’naviy salohiyatga ega bo‘lib, dunyo miqyosida o‘z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo‘sh kelmaydigan insonlar bo‘lib kamol topishi, baxtli bo‘lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz, bu siyosatni ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko‘taramiz. Muhtaram prezidentimiz yoshlarning taqdirini siyosat darajasiga ko‘tarayotganlarini har kuni har sohada yaqqol misolini ko‘rib turibmiz. Biz pedagoglar esa ushbu islohotlardan unumli foydalanish zarurligi borasida o‘quvchi yoshlarga tushunchalar berib borishimiz darkor. Yurtboshimiz shunday islohatlarni amalga oshirayotgan bir vaqtda biz ham oddiy bir maktab psixologi sifatida o‘quvchilar tarbiyasiga ijobiy tasir qilishi mumkin bo‘lgan ayrim fikrlarimizni bayon etmoqchimiz. Maktab o‘quvchilarining ijtimoiyma’naviy o‘zgarishlariga sabab bo‘layotgan omillardan biri ular o‘zlarining kimlarning naslidan ekanligini, bobolari kimlar bo‘lganu, momolari kim ekanligini unutib yohud etiborsiz bo‘lib qolganlarida deb o‘ylaymiz. Buyuk bobokolonimiz haqida yozilgan “Temur tuzuklari” deya nomlangan kitobda shunday jumlar mavjud. Pirim menga yozmishlarkim: “Abdulgʻalim Temur saltanat ishlarida to‘rt narsaga amal qilgin, yani:

- 1) (o‘zing bilan) kengash;
- 2) boshqalar bilan)mashvaratu maslahat ayla;
- 3) xushyorlig-u mulohazakorlik bilan qat’iy qaror chiqar;
- 4) ehtiyotkor bo‘l.

Bobokolonimiz ushbu fikrlarni ancha asrlar oldin so‘zlagan bo‘lsalar-da bu fikrlar hozirgi davrning yigitlarining hayot yo‘llarida asqatishi aniq va real tarzda ko‘rinib turibdi. Mana muammo qayerda agar hozir shu vaqtda o‘quvchilardan ushbu fikrlarni qaysi bobomiz so‘zlaganlar deya so‘rasak tayinli javob olishimiz amrimahol. Oilaning ustuni erkak kishi bo‘lsa uning barakasi ayoldir. Baraka faqat mablag‘ yoki tozalikka bog‘liq bo‘libgina qolmay sog‘lom psixologik muhitga ham bog‘liq albatta. Yana yuqoridagi fikrlarimizga qaytsak, nafaqat yigitlar, balki qizlar ham o‘z momolarning kimlar ya’ni



qanday ruhiyat sohibalari bo‘lganliklari haqida tasavvurga ega emaslar. Turg‘un Fayziyevning “Temuriy malikalar” kitoblarida tarixda ayollar orasidan shavkatli hukmdorlar, oqila maslahatgo‘ylar, yetuk donishmandlar, zabardast olimlar, suxandon shoiralar va zukko san‘atshunoslar yetishib chiqqan. Chunonchi, massagetlar hukmdori To‘maris o‘z davrining yetuk siyosatdon hukmdori bo‘lgan. Biz ojizamiz, biz ayolmiz to‘g‘ri lekin bola tarbiyasida oiladagi ruhiy muhitni mustahkamligini ushlab turish uchun biz ayollar kuchli iroda sohibi, udabburan, ishbilarmon, zukko bo‘lmog‘imiz kerak. Qadimdagi momolarimizning ham oilasida yumushlari yosh farzandlari va o‘ziga yarasha muammolari bo‘lgan. Muammo faqat bizda emas. Shunday ekan qaddimizni baland ko‘targan holda yurtimizda yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanib, olg‘a qadam tashlamog‘imiz darkor.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. – T.: O‘qituvchi MU MCHJ, 2021. 11 b
2. A.Sog‘uniy va H.Karamatov. Temur tuzuklari. – T.: Yangiyul Poligraph Service, 2018. 9-10 b
3. Turg‘un Abdulhaq o‘g‘li Fayziyev. Temuriy malikalar. – T.: O‘zbekiston, 2009.